XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 18-avgust VII-33-71-4-67-K/26 Shahrisabz tumani

Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindilarni olib chiqish xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-son qaroriga muvofiq 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalariga tuman va shaharlar markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish huquqi berilganligi hamda mazkur xizmatlar tariflarini belgilash xalq deputatlari Kengashlari vakolatiga kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasining xulosasi hamda tuman hokimining o‘rinbosari X.Turayevning taklifi ma’qullansin.

3. Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlari (yuridik shaxslar) bilan tuziladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar tariflari miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasi (J.Turdiyev):

- tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan belgilangan tariflar asosida shartnomalar tuzilishini hamda xizmatlar o‘z vaqtida va sifatli ko‘rsatilishini ta’minlasin;

- ko‘rsatilgan xizmatlardan tushgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Qulmatov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan tariflarni keng jamoatchilik va tadbirkorlik subyektlariga veb-sayt hamda rasmiy Telegram kanali orqali yetkazilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Shahrisabz tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Baratov zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida e′lon qilinishi ta’minlansin.

Kengash raisi **UZAKOV ARSLON AVAZOVICH**

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani
Kengashining
2026-yil 18-avgustdagi
VII-33-71-4-67-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha

TARIFLAR

Xizmat koʻrsatiladigan subyektlar	**Xizmat turi**	**Oʻlchov birligi**	**Tarif miqdori (soʻm) (QQS bilan)**
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	88 264,0
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Obodonlashtirish	m^3	7 500,0